



Received: October 5, 2023
Accepted: December 22, 2023
Available online: December 25, 2023

Durdona Kadirova

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
tayanch doktoranti
Toshkent, O'zbekiston

FEMINIST DISTOPIK ROMANLARNING GENDER XUSUSIYATLARI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola feministik distopiya romanlarida mavjud gender xususiyatlari, ularning talqin etilishidagi farqlari va distopiya jamiyatlaridagi oqibatlariga e'tibor qaratadi. Maqolaning asosiy maqsadi, adabiyotda yangi janr hisoblangan feminist distopiyalarining erkak va ayol yozuvchilar tomonidan yaratilishiga ko'ra tafovutlarini ko'rib chiqishdan iborat. Bu bahsmunozaralar haligacha o'z yechimini topmagan bo'lib, bizni feminist distopiyalarining ikki jins nuqtayi nazaridan farqlarini o'rganishga undadi. Qolaversa, ayol timsoli har bir davrda o'ziga xos o'rin tutgan, lekin distopiya janrining paydo bo'lishi ayol oqizaligi hamda erksizligini ochib berish uchun eng yaxshi va maqbul janr sifatida foydalanilgani e'tiborni tortadi. Ushbu janrda ijod qilgan bir qancha ayol va erkak yozuvchilar asarlari tahlil qilinib, mualliflar mahoratiga e'tibor qaratilgan. Maqolada gender iyerarxiyasi, reproduktiv nazorat, genderga asoslangan zulm, obyektivlashtirish, jinsiy zo'ravonlik, qarshilik ko'rsatish va imkoniyatlarni kengaytirish kabi bir nechta asosiy mavzular aniqlangan va muhokama qilingan.

Feministik distopiya romanlarini tarixiy-madaniy, biografik va qiyosiy metodlar yordamida hartomonlama chuqur o'rganish gender va ijtimoiy tizim o'rtasidagi murakkab, o'zaro bog'liqlikni ochib beradi. Ushbu asarlar ko'pincha mavjud gender tengsizliklarini qanday kuchaytirishi va tanqid qilishini o'rganadi, dunyodagi mavjud muammolar bo'yicha o'tkir ijtimoiy sharhlarni taklif qiladi. Erkaklik tushunchasini ijobiy va salbiy shakllarini asarlarda tahlil qilish asosida, murakkab gender dinamikasini fantastik olam silsilasida tadqiq etishga keng imkon yaratadi.

Bundan tashqari, maqola an'anaviy gender

Durdona Kadirova

PhD Student, Uzbekistan State World
Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: durdona20011989@gmail.com

THE GENDER FEATURES OF FEMINIST DYSTOPIAN NOVELS

ABSTRACT

This article analyses the gender aspects found in feminist dystopian novels, with a focus on how they depict gender differences and their effects on dystopian societies. The main aim of the article is to explore the variations in the representation of feminist dystopias, which are regarded as a new literary genre by both male and female representatives. This ongoing controversy requires us to delve into a study of feminist dystopias as portrayed by both genders. The portrayal of women has been a crucial element throughout history, but the dystopia genre has proven to be the most effective genre for depicting women's lack of independence and perceived weakness. The article discusses the portrayal of gender with a focus on gender hierarchy, reproductive control, gender-based oppression, objectification, sexual violence, resistance, and empowerment.

The article provides a detailed analysis of feminist dystopian novels, showcasing the intricate relationship between gender and power structures. These works of fiction effectively highlight and criticize the existing gender inequalities in our society, thus offering significant social commentary on real-world issues. Examining the positive and negative representations of masculinity in these novels opens up a vast opportunity to explore the complex gender dynamics within a range of fantastical worlds.

By applying the methods of historical-cultural, biographical, and comparative analysis, the article emphasises the potential of feminist dystopian novels to transform traditional gender norms. These novels can inspire conversations about gender equity and social justice. The article underscores the importance of these narratives

me'yorlariga qarshi kurashda va gender tengligi va ijtimoiy adolat haqida ilhomlantiruvchi munozaralarda feministik distopiya romanlarining o'zgaruvchan potensialini ta'kidlaydi. Bunday badiiy asarlar gender masalalari bo'yicha xabardorlikni oshirish va tanqidiy yondashuvlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu maqola feministik distopiya romanlarining gender xususiyatlariga oydinlik kiritadi hamda gender tengsizligini tadqiq qilishda janrning ahamiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: utopiya, distopiya, feminist distopiya, ilmiy fantastika, gender, totalitar tuzum, o'zga sayyoralik, hukmdor ayol, ilm-fan, jamiyat.

KIRISH

Adabiyotda distopiya janrining rivoji 20-asrning o'rtalariga to'g'ri keldi. Adabiyotshunos olimlar bu turdagi asarlar va ularning janrlar tizimidagi o'rni to'g'risida hali-hanuz bir fikrga kelishmagan. Buning asosiy sababi shuki, terminologik nomuvofiqliklar masalasi hal etilmagan, distopiya adabiyotining chegaralaridagi mavhumlik, romanning fantastik janrga yoki mustaqil janr ekanligiga doir masala to'laqonli hal qilinmagan. Distopiya adabiyoti turlarining xilma-xilligi tufayli, ushbu maqolada, biz o'rganilayotgan romanlarga murojaat qilish uchun distopiya janri atamasidan foydalanamiz [Mahmudova, 2019; 180].

Ma'lumki, distopiya janri yangi janr bo'lib, uning vujudga kelishi T.Morning "Utopiya" asari yaratilishi hamda utopiyaning janr sifatida shakllanishiga bog'liq. "Distopiya" (boshqa bir yasama neologizm) so'zi ilk bor 1868-yili J.S. Millning parlament nutqida utopiya ya'ni "imkonsiz darajada yaxshi" atamasiga qarama-qarshi ma'nodagi "imkon darajasida yomon" degan ma'noda qo'llanilgan. J.S. Milldan so'ng bir necha yozuvchilar "utopiya teskari ma'noda" g'oyasiga mos bir necha atamalarni taklif qildilar (salbiy utopiya, regressiv utopiya, teskari yoki yomon utopiya), lekin J.S. Millning yangi atamasi "distopiya" ustun keldi [Kadirova, 2023; 899]. Distopiya janrining paydo bo'lishi, o'z navbatida, jamiyatda ayol o'rni haqida yozishga ehtiyoj tug'dirdi. Natijada feminist distopiyalar adabiy maydonga kela boshladi. Feminist distopiyalarda ayol obraziga murojaat ikki jins vakillari tomonidan turlicha ekanligi bois, turli bahs- munozaralarga sabab bo'ldi. Maqolaning asosiy maqsadi, mana shu muammoli bahs-munozaralarni muhokama qilgan holda, ayol obraziga feminist distopiyalarida ikki jins vakillari tomonidan qanday yondashilganligini o'rganishdan iborat. Bu borada, biz bir necha tadqiqot metodlariga tayandik. Jumladan, tarixiy metod distopiya janrining kelib chiqishini o'rganishimizda bizga dastak bo'lgan bo'lsa, tanqidiy metod esa turli jins vakillari tomonidan yozilgan asarlardagi ayol obrazi atrofidagi tanqidiy qarashlarni o'rganish va anglab yetishda, qiyoslash metodi – feminist distopiyalarida ayol obrazining yaratilishini o'zaro taqqoslab, tafovutlarini aniqlashda bizga yordam berdi.

in raising awareness and encouraging critical engagement with gender issues.

This article explores the gender aspects of feminist dystopian novels, to gain a better understanding of the genre's role in addressing and questioning gender inequality. It emphasizes the importance and effectiveness of these stories in imagining more equitable and inclusive futures, highlighting their continued relevance and power.

Key words: utopia, dystopia, feminist dystopia, science fiction, gender, totalitarian regime, alien, woman ruler, science, society.

Distopiya janri vujudga kelgan davrdan boshlab, erkak yozuvchilar bu janrda peshqadamlik qilib keldilar. Xususan, J.Oruel “1984” (“1984”), A.Xaksley “Ajib yangi dunyo” (“Brave New World”) asarlari bizga distopiyaning janriy xususiyatlarini to‘liq tushunishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Erkaklarning adabiyot sohasidagi, jumladan, distopiya janridagi peshqadamligi feminizm davriga qadar davom etdi. Barchamizga ayonki, ayollar o‘z erk va huquqlariga ega bo‘lmay, faqat erkak kishiga qaram sifatida hayot kechirgan. Bu esa ayollarni jamiyat siyosiy hayotidan ham uzib qo‘yish bilan birga, ijodiy erkinligiga ham to‘siq bo‘lgan. Bu esa, ba’zi ayol yozuvchilarni erkak ismi ostida ijod qilishga majbur qildi. Lekin 1970-80-yillarda feminizmning ikkinchi to‘lqinidan so‘ng ayollar ham o‘z huquqlarini tiklab, jamiyat hayotida faol ishtirok etish bilan birga, ijodiy faoliyatida ham o‘z ismi bilan ko‘rinish bera boshladi. Ayollarning distopiya janriga qiziqishi yangi janr – feminist distopiyalarining yaratilishiga turtki bo‘ldi. 1970-yildan, ya’ni 2-to‘lqin feminizmi davridan beri, feminist distopiyalar umumfaollikka bog‘langan feminist utopiyalar negizida shakllandi [Lukes, 2014; 50]. Feminizm atamasi utopiya hamda distopiyani o‘rganuvchi darsliklarda keltirilganidek ayol uchun foydasiz bo‘lgan madaniy qatlamlar va ijtimoiy tuzumlarining tanqidiga ishoralarni tushunishga yordam beradi. Feminizm izchil davom etmagan harakat bo‘lib, ayol haqidagi tanqidiy bahs-munozaralar paydo bo‘lishi bilan sezilarli darajada o‘zgardi. Shu sababli feminist distopiyalar feminist ilmiy fantastika, feministik nazariya hamda feminist utopik yozuvlarini birlashtiradigan eng yaxshi janr sifatida o‘rganiladi [Cortiel, 2015; 156]. Feminist yozuvchilarning bir nechtasi 1980-yilgi qo‘zg‘alish mobaynida har qanday muammodan qat’iy nazar, utopiyaga nisbatan o‘z umidlarini so‘ndirgan holda distopiya mavzusiga e’tibor qarata boshladilar [Mohr et al., 2005; 35]. O‘tgan bir necha 10 yilliklar mobaynida bu janrga qator o‘zgarishlar kiritilgan. Feminist distopiyalar 2016-yildan boshlab ayollar allaqachon qo‘lga kiritgan ayol huquqlarini oshkora rad etish bilan xarakterlanadigan avvalgi distopiyalardan farq qiladi va yangi mingyillikdagi transmodernlik taraqqiyotining ifodasi hisoblanadi [Stock, 2011; 16]. Ayolning ishonchsizligi va beqarorligi uni kamsitishlariga va natijada ayol tanasining sotilishiga olib keldi. Bu esa hamma yerda ayol shaxsiyatiga ta’sir ko‘rsatdi. Kambag‘al va kamsitilgan ayollarning ayol huquqlaridan mosuvo bo‘lishiga sabab bo‘ldi [Kadirova, 2023; 224]. Shu sababli adabiyotda ayol obraziga nisbatan ikki xil qarash paydo bo‘ldi, bu esa uning talqiniga ham sezirali ta’sir ko‘rsatdi. Asosiy qismida maqolaning maqsadidan kelib chiqib, hamda tadqiqot metodlaridan foydalangan holda, ayol obrazi asarlar misolida muhokama qilindi va muammolar o‘rganildi. Maqolaning muhokama qismida erkak va ayol yozuvchilar tomonidan feminist distopiyalaridan namunalar keltirildi. Ushbu muhokamadan olingan natijalar maqolaning xulosa qismida yoritilgan.

TADQIQOT METODLARI

Maqolaning asosiy maqsadi, feminist distopiyalarining gender xususiyatlarini o‘rganishdan iborat bo‘lganligi sababli, avvalo, mana shu xususiyatlarni aniqlash uchun bir nechta muammoli vaziyatlarga e’tibor qaratamiz. Bu, albatta, ayolning jamiyatdagi

oʻrni qanday boʻlganligi hamda qaysi jins vakillarining asarlarida ayol obrazi haqiqiy hayotga yaqin tarzda tasvirlanib, uning asl mohiyatini ochib bera olganligini tahlil qilishdan iborat. Jamiyatdagi tuzumning ayol erki va huquqini toptashi, ayolning tobeligi, ayol yozuvchilar asarlaridagi bosh mavzuga aylandi. Garchi, feminist distopiya alohida bir janr sifatida takomillashmagan boʻlsa-da, yozuvchilarning kengroq koʻlamini qamrab ola boshladi, shu bilan birgalikda, kitobxonlar eʼtiborini qozona oldi. Feminist distopiya deganda, koʻz oldimizga M.Etvudning “Oqsoch hikoyasi” asari keladi. 1985-yilga qadar talay asarlarda ayol shaxsiyatiga murojaat qilingan boʻlsa-da, bu asar “distopik jamiyatdagi ayolning oʻrni” haqida yozilgan asar ekanligi bilan ajralib turadi [Tolan, 2007; 58].

Zamonaviy feminist distopiyalarning oʻziga xos belgisi shundaki, ular nasr xususiyatlaridan chetga chiqmagan holda umumfaollikni qamrab oladi. Bunday xususiyatning yaqqol dalili Amerika, Angliya, Kanada, Argentina va boshqa koʻplab mamlakatlardagi ayollar yurishlari, umumjahon norozilik namoyishlarida ayollarning M.Etvudning “Oqsoch hikoyasi”dagi kabi qizil koʻylakli “oqsoch”larning paydo boʻlishidir [Kadirova, 2023; 223]. “Oqsoch hikoyasi” asari Ofred ismli bosh qahramon tilidan hikoya qilinib, ayollarning totalitar jamiyatdagi qadri va erksizligi, uning jamiyatdagi oʻrnini koʻrsatib beradi. Asar boshida Ofred oʻzi yashayotgan jamiyat ostin-ustin boʻlib, yangi jamiyat barpo etilishi natijasida, oʻz ishidan, oʻz oilasidan hamda barcha huquq-erkinliklaridan mosuvo boʻlgan umidsiz qahramon sifatida gavdalanadi. Koʻzgu esa ikki maqsadda ishlatiladi: birinchisi asarning ilk qismida namoyon boʻlib, bunda koʻzgu Ofredning oʻzligini anglashiga toʻsqin boʻlsa, ikkinchisi keyingi qismda Ofredning oʻzligini topishida manba sifatida xizmat qiladi. Asarda oqsochlar yashaydigan uyning hammomlarida koʻzguning mavjud emasligi, unga nisbatan ehtiyoji yoʻqligidan dalolat beradi. Bu esa oqsochlarning oʻz tashqi koʻrinishi haqida oʻylashga, oʻziga oro berishga ham haqqi yoʻqligiga ishora qiladi. Giliad – distopik jamiyat misolida M.Etvud Amerika va boshqa davlatlarda mavjud totalitar tuzumni tasvirlaydi va bu tuzumning ayol shaxsiyati shakllanishidagi oʻrnini koʻrsatadi. Asarda Ofredning oʻy-xayollari, jamiyat ayollari boshiga tushgan qiyinchilik, erksizlik va baxtsizlikni ifodalaydi: “I once had a garden. I can remember the smell of turned earth, the plump shapes of bulbs held in the hands, fullness, the dry rustle of seeds through the fingers” [Atwood, 2017; 16]. Totalitar tuzum natijasida nafaqat oilasidan va mol-mulk egaligi huquqidan, balki ayollarga xos boʻlgan sevilish, sevilish, oshkora kulish va yigʻlashdan, oʻz his-tuygʻularini koʻrsatishdan mahrum boʻlgan ayolning birgina vazifasi – maxsus belgilangan kunda, farzand koʻrish maqsadida oʻzi birlashtirilgan oila erkagi bilangina munosabatga kirishib, homilador boʻlish va bolasini dunyoga keltirgach, uni ushbu oilaga topshirishdan iboratligini koʻrish mumkin. Bu esa ayollar faqatgina jamiyat aʼzolari sonini koʻpaytirish, jamiyatni yanada mustahkamlash uchungina kerak ekanligiga ishora qiladi. Koʻrinib turganidek, feminist distopiyalarining asosiy vazifasi ayol shaxsini tasvirlab, uning ortida turgan jamiyat qusurlarini koʻrsatadi [Theron, 2019; 111]. M.Etvuddan soʻng koʻpgina ayol yozuvchilar mazkur janrda ijod qilib, ularning asarlari muvaffaqiyatli nashr etildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Maqolaning natijalar va munozara qismida, yuqorida keltirilgan muammolarga asoslanib, yozuvchilar tomonidan ayol shaxsining talqin etilishini o'rganamiz. Bu borada biz qiyosiy hamda tanqidiy metodlardan foydalanib, ayol va erkak yozuvchilar tomonidan yozilgan bir necha feminist distopiyalarini tahlil qilamiz. L.Erdrichning "Tirik Xudoning kelajakdagi uyi" (2017) ("Future home of the living God") va L.Zumasning "Qizil soatlar" ("Red Clocks") (2018) asarlari ayol tanasi ustidan erkaklik nazoratini qoralaydigan eng so'nggi asarlardir. "Tirik Xudoning kelajakdagi uyi" ("Future home of the living God") asarida Puritan hukumati tug'ilishlar jarayonini tezlashtirish uchun tug'ish yoshidagi ayollar nazorat ostiga olinishi tasvirlansa, "Qizil soatlar"da ("Red Clocks") hayot aslida oddiy ko'rinsa-da, ayollar uchun juda qiyin, homiladan voz kechishni qonunga zid deb baholovchi yangi qonunlar ta'sirida bola boqib olish uchun turmush qurishni zaruriyatga aylantirish tasvirlanadi. Ikkala asardagi voqealar ham kelajakda sodir bo'lmaydi, lekin voqealar tezda aniq dalilga aylanishi ta'kidlanadi. Avvalgi distopiyalarda hikoya qilingan "mudhish joylar"dan ko'ra, bu asarlar Minnesota va Aregonadagi tabiat qo'ynida sodir bo'ladi. L.Erdrichning "Tirik Xudoning kelajakdagi uyi" ("Future home of the living God") nomli distopik asari uning qolgan 17ta asarida uchramaydigan distopik motivga asoslangan bo'lib, ko'p asarlarida Ojibva an'analarining tiklanishi haqida hikoya qilinadi [Martinez-Falquina, 2021].

M.Pots asarning ojibvalik qahramoni va hikoyachisi o'zining liberal o'gay ota-onasi tomonidan Kidar Xoup deb nomlanadi. U 26 yoshida homilador bo'lib, tug'ilajak farzandiga homiladorligi to'xtatilgan yoki bu jarayonda tirik qolgan ayollar uchun kundalik yozadi [Erdrich, 2017; 38]. Hayvonlar va sabzavotlar urug'lari, kutilmagan o'zgarishlarni sinab ko'rayotganda olimlar dunyo teskari yo'nalishda rivojlanayotganligini qayd etadilar, va sodir bo'layotgan voqelikni tushuntirishga ojizlik qiladilar. Ishonchsizlik va tartibsizlik mobaynida Yangi Konstitutsiya Cherkovi Amerika hukumati o'rnini egallaydi va chegaralar yopilgandan so'ng, Kanada va Meksikadan alohida avtoritar tizim barpo etadi [Martinez-Falquina, 2021]. Shu sababli, Amerikaliklar qo'shni davlatlar uchun noqonuniy – xorijlik bo'lib qoladilar. Tug'ilishni davom ettirishga xayrixoh bo'lgan holda hukumat homilador ayollarni tutqunlikda saqlab, farzandini dunyoga keltirgach, bolasini olib qo'yadilar. Kedar kabi o'z ayolligini saqlagan, tug'ishga qodir ayollar yanada ko'proq bola tug'ishga majbur qilinadi. U o'z ota-onasini topish uchun Ojibvaga kelgach, kitobxon uni yana tutqunlikda va ikkinchi farzandiga homilador holatda ko'radi. "Qizil soatlar"da ("Red Clocks") ayollarning o'z tanalariga bo'lgan huquqdan mahrum qiluvchi qonunni hisobga olmaganda hayot "yaxshi" [Martinez-Falquina, 2021]. Homiladan voz kechish Amerikaning 50ta shtatida qonunga zid hisoblanadi, bu o'z o'rnida qotillikka tenglashtirilgan. Turmush qurmagan odamlar farzand asrab olishga qonunan haqli emas edi, shuningdek, Kanada bilan chegarada Pushti devor mavjud bo'lib, chegara politsiyachisiga homilasidan voz kechishga shubha ostiga olingan ayollarni tekshirib ko'rishga hukumat ruxsat beradi [Bedore, 2017; 218]. Asar to'rt ayol taqdiri misolida qonunlarning ayanchli oqibatlarini ko'rsatadi. Bu ayollar o'rtasidagi aloqadorlikni

ochib beradi. Rou yaqinda ona bo'lish imkoniga ega bo'lgan tarix o'qituvchisi. Syuzen baxtsiz turmush kechirgan, lekin o'z bolalarini haddan ortiq sevadigan ikki bolaning onasi. Uning Rou bilan bellashuvi ochiq-oshkora bo'lib, har biri boshqasida mavjud bo'lgan narsani xohlaydi. Syuzen o'zining advokat sifatidagi faoliyatini davom ettirishni istaydi va eri bilan ajrashadi. Jin o'rmonlarda yolg'iz yashaydigan ayol, uning insonlar bilan munosabati afsungarlikka teng bo'lib, o'z ongidagi kasalliklarga an'anaviy davo izlab uning oldiga tashrif buyurgan ayollar bilan suhbatdan iborat edi. Jin asrandi o'smir qiz – Mattini kuzatadi, lekin u bilan aloqadorligini sezmagani holda, unga yordam beradi. Matti asarning to'rtinchi obrazi – homiladorlikdan xalos bo'lmoqchi bo'lgan ayol [Klingensmith, 2016; 78]. Bu esa qonun hamda ijtimoiy to'siqlarga qaramay, ayollarni qo'llab-quvvatlovchi yashirin tizim mavjud ekanligini ko'rsatadi. Bu ikki asarda ko'rsatilganidek, iqlim o'zgarishlarining ayanchli oqibatlari hamda neoliberalizmning haddan ortiqchilik haqida gap ketganda, ayollar eng ko'p azob chekkan qurbon hisoblanadi. Bu asardagi ayollar harakatsizlikning xavfli oqibatlariga ishora qiladilar va bizni Kedar va Yasmin kabi qora tanli ayollarga nisbatan adolatsiz munosabatda bo'lishga qarshi turishga undaydilar [Martinez-Falquina, 2021].

A.Karter “Qahramonlar va yovuzlar” (“Heroes and Villians”) asari 1967-yilda yozilgan va distopik tartibsiz dunyoni tasvirlaydi. Asar yozilgan davr va vaqtga aloqador umumbashariy muammolarni ko'zda tutadi. A.Karter o'zining distopik asarida ayol obrazi nuqtayi nazaridan umidsizlikni ko'rsatadi. Bu orqali u qiz bola obrazi orqali ayol distopik nasrining umumiy belgilarini kashf etadi. A.Karter 1960-yillarning ijtimoiy-siyosiy holatini aks ettirishga urinadi va bunga erishadi. Asar qahramoni Marian, umidsiz distopik jamiyatdagi umidsiz ayol qahramon, nafaqat bitta, balki ikkita distopik jamiyatda yashashga majbur bo'ladi. U oila a'zolarining o'limidan so'ng, Aflotunning “Respublika”sida nazarda tutilgan Professorlar bunyod etgan “utopiya”dan qochib, Varvarlar hukmronligi ostidagi boshqa bir distopik mamlakatga borib qoladi, lekin undan qochib keta olmaydi. Uning tashrifi varvarlarni tahlikaga soladi, ular Marianni inson zotiga mansub bo'lmagan boshqa bir mavjudot deb o'ylaydilar va u bilan to'qnash kelganda o'zlariga tushunarli bo'lgan turli irim-sirim amallarni qo'llaydilar. Bu haqida Karpenskiy shunday yozadi: “Marianne's presence terrifies the Barbarians, so they make a superstitious sign against the evil eye every time they see her. “She was only a young girl” yet Jewel is afraid of her” [Karpinski, 2000; 137] (“Marianning mavjudligi Varvarlarni qo'rqitardi, shu sababli ular uni uchratganlarida yovuz ko'zga qarshi irim-srim qilib qo'yadilar”). U tutqinlikka olingach, bu joyning o'zi avval yashagan distopik jamiyatdan umuman farq qilmasligiga amin bo'ladi. Shu sababli, A.Karter yaratgan obraz umidsiz distopik jamiyatdagi umidsiz qahramon hisoblanadi [Şaltan, 2019; 19]. “Qahramonlar va yovuzlar” (“Heroes and Villians”) asaridagi ijtimoiy tartib iyerarxik ekanligi asar nomidan ham ko'zga tashlanadi. A.Karter asar boshida iyerarxik tartibni jamiyatdagi tartibga sababchi sifatida keltiradi. Kitobda aytilishicha, “The soldiers are heroes, but the Barbarians are villains” [Carter, 2011; 163]. Asar nomi undagi jamiyatni barpo etgan obrazlarga qarama-qarshi qo'yiladi. Bu asarni o'qish jarayonida A.Karter Varvarlar nuqtayi nazaridan patriarxat tartibni ko'rsatib berish uchun utopik fikrlash

asoslaridan foydalanganiga amin bo‘lamiz. Ya‘ni asardagi professorlar o‘zlari qayta yaratgan jamiyatlarini Aflotunning “Respublika”si asosiga barpo etadilar va bu bilan, go‘yoki, Aflotunning xayoliy mamlakati haqiqatga aylanganini ko‘rsatadilar. Professorlar nuqtayi nazarida ularning jamiyati distopik jamiyat bo‘lgan Varvarlar jamiyatiga butunlay qarama-qarshiligi sababli utopik jamiyat hisoblanadi. Asarda III-jahon urushidan so‘nggi kelajakdagi dunyo tasvirlanadi. Bu urush natijasida uch guruhga bo‘linib ketgan jamiyatni ifodalovchi distopiyadir. 1-guruh yuqori tabaqaga mansub ma‘rifatparvar odamlar jamiyati bo‘lib, kuchli qurollangan askarlar tomonidan qo‘riqlanadigan professorlar, 2-guruh yovvoyilashgan odamlar bo‘lib, ular quyi tabaqaga mansub yovvoyi tabiat qo‘ynida hayot kechiruvchi Varvarlar jamiyati, uchinchi esa yadro radiatsiyasidan eng ko‘p zarar ko‘rgan mutantlar jamiyati. Professorlar va Varvarlar jamiyatni tashkil qilmaydigan, ijtimoiy kelib chiqishidan na inson, na hayvonga mansub bo‘lgan mutantlar tomonidan tahdid ostida yashaydilar. A.Karter J.J. Russoning “Noyob yovvoyi” (“Noble Savage”) konsepsiyasini Jevl timsolida tasvirlaydi [Karpinski, 200; 144]. J. J. Russo o‘zining “Emili” (“Emily”) asarida ayolning erkak modelini Sofi obrazida ochib bersa, A.Karter J.J. Russoning ayollik fantaziyasini o‘zining Marian obrazida takrorlaydi. Russoning utopiyasi ayolga tabiatan bo‘ysunishni taqozo etadi va oilada erkak boshqaruvini o‘rnatadi. Karter bunday bo‘ysunishni kinoya qiladi [Karpinski, 2000, 144]. Garchi Professorlar va Varvarlar bir-biriga qarshi bo‘lsa-da, ularning har ikkida ayolga bo‘lgan munosabat bir xil. Mukammal jamiyatning utopik tasvirini tanqid ostiga olar ekan, A.Karter Professorlar va Varvarlarning jamiyat boshqaruvida bir-biriga bo‘lgan qo‘rquvni ko‘rsatib o‘tadi. Bosh qahramon Marian Varvarlar jamiyati a‘zosi Jevl tomonidan tajovuzga uchragach, ushbu jamiyatda qolishga majbur bo‘ladi. Jevl mamontlar bilan bo‘lgan jangda halok bo‘lgach, Marian qabilani yo‘lbars ayol laqabi bilan boshqaradi. Bu esa Marianning o‘z shaxsiyatini anglab yetgani hamda asar boshida o‘zi rad etgan jamiyatning kuchli vakili bo‘la olganini ko‘rsatadi: “I’ll be the Tiger Lady and rule them with a rod of iron” [Carter, 2011; 163], natijada esa, Marian o‘zidan qoniqish hissiga erishadi. A.Karterning spekyulativ asar orqali asosiy maqsadi ayol va erkak munosabatlarini ifodalovchi gender tamoyillarini tekshirishda ko‘rinadi. Garchi ikki jamiyat bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilsa-da, bu jamiyatlar erkak hukmronlik qiladigan jamiyatlardir. Asar qahramoni Marian esa ana shu jamiyatda o‘z o‘rnini egallay olgan ayol obrazi hisoblanadi.

M.Pirsning “Vaqt qirg‘og‘idagi ayol” (“Woman on the Edge of Time”) asari feminizmning ikkinchi oqimi davri, ya‘ni 1970-yillarda yozilgan. Bosh qahramon Konni zamonaviy Amerikaning barcha salbiy xususiyatlariga guvoh bo‘lgan va boshidan o‘tkazgan. Konning erkaklik jamiyatida yashayotgan ayol ekanligi, uning hayotidagi muvaffaqiyatsizliklarga va tahdidga sabab bo‘ladi. Uning taqdiri Amerikadagi ko‘plab ayollar taqdiriga aynan o‘xshashdir [Bizzini, 1996; 100]. Uning jinsi, irqi hamda sinfiy mansubligi uni jamiyatda kamsitilishiga va o‘z o‘rnini topa olmasligiga sabab bo‘ladi. Boshqa bir qahramon – kambag‘al, immigrant oiladan bo‘lgan Chikana ham mana shunday kamsitilishlarga duch keladi. U jamiyatdan ham ijtimoiy, ham irqiy hamda jinsiy tabaqalanish, kamsitilishni ko‘radi. Konni esa o‘z

hayotida duch kelgan erkaklar sabab baxtli bo'la olmaydi. Otasidan boshlab, akasi bilan davom etgan kelishmovchiliklar, keyinchalik kollejdagi professor, o'z turmush o'rtoqlari, hamkorlari va shifokorlar bilan yakun topadi [Gilarek, 2012; 225]. Uning jamiyatda "Kimdir" bo'lish istagi o'z farzandiga otalik qilishdan bosh tortgan oq tanli talaba yigitdan homilador bo'lgach tugaydi. Nihoyat, u noqonuniy yo'l bilan bolani tushurishga muvaffaq bo'ladi, natijada esa oilasi undan voz kechadi. Ushbu vaziyatni Konni shunday ta'riflaydi: "Neither baby nor husband, neither diploma, nor home. No name. Nobody" [Piercy, 1976; 234]. Birinchi turmush o'rtog'idan bevaqt ayrilgach, ikkinchi bor oila qurgan Konni turmush o'rtog'i sabab jinoyat olamiga kirib qoladi. Bu olam uni qamoq hayotiga olib kiradi, natijada o'z qizi hukumat tomonidan olib qo'yilib, boshqa oilaga berib yuboriladi [Gilarek, 2012; 225]. Asar ayol taqdiridagi baxtsizliklarning barchasi erkak kishining ishtiroki bilan sodir bo'lishiga ishora qiladi. Afsuski, bunday baxtsizlikdagi ayollar soni juda ham ko'p [Minico, 2019; 7]. Yuqorida keltirilgan feminist distopiyalarida ayollar erksiz va baxtsiz bo'lib, ularning barchasi erkak hukmron bo'lgan jamiyatda yashayotgan ayollar taqdiri misolida beriladi. Ayol yozuvchilar o'z qahramonlari hayotidagi bunday chirkinliklarni tasvirlar ekanlar, ularning barchasi o'zlari ko'rgan, guvohi bo'lgan ayollar hayotidan olingan bo'lib, asarda ular mansub bo'lgan jamiyat distopik jamiyat sifatida tasvirlanadi [Stillman, 2003; 67].

Feminist distopiyalar ommalashib borgach, nafaqat ayol, balki erkak yozuvchilar ham bu janrga murojaat qilishga istak bildirdilar. Ko'plab erkak yozuvchilar yaratgan feminist distopiyalarda ayollar erkak obrazida tasvirlanadi. Ular tomonidan yaratilgan feminist distopiyalarning barchasida deyarli bir xil syujet chizig'i mavjud. Ya'ni bosh qahramon ayol bo'lib, u yoki hukumat boshqaruvchisi bo'ladi, yoki o'zga sayyoradan va jamiyatdan kelgan o'ta g'ayritabiiy kuchga ega shaxs bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, ayollarning hukumat boshqaruvi hamda ilm-fan sohasidagi muvaffaqiyatsizligini ochib beradi. Ayollarning ilm-fan va hukumat boshqaruvidagi uquvsizligi texnologiyaning tanazzulga yuz tutishiga olib keladi [Dydov, 2014; 85]. V.Bezant "Erkaklar qo'zg'oloni" ("The Revolt of Man") yetakchi jins sifatida ayol halokatini tasvirlasa, B.Litton "Navbatdagi irq" ("The Coming Race") asarida o'zga sayyoralik ayollarni tasvirlagan. "Erkaklar qo'zg'oloni" ("The Revolt of Man") 1882-yilda yozilgan va unda 2082-yil voqealari tasvirlangan. Asar ayol bilimi – hukmdor ayollarning dahshatli yovuzligiga sabab bo'lganini ko'rsatadi [Roberts, 1985; 32]. Yozuvchining ayol qahramonlari kelajakda nafaqat boshqaruvdan voz kechadilar, balki ayolning bo'ysunishi tabiiydir degan xulosaga keladilar. Jismoniy kuch ishlatish taqiqlanganligi sabab ayollar hukmronlik qiladilar, "Erkaklar qo'zg'oloni" ("The Revolt of Man")da V.Bezant "ayollarga huquq va erkinlik berilsa, ilm-fan tanazzulga yuz tutadi" degan fikrni bildiradi [Besant, 2021; 189]. Buyuk O'tish erkaklar o'z kuchlaridan foydalanmasligi natijasida yuzaga keladi. Ayol va ilm-fan o'rtasidagi tafovut asarning asosiy mavzusi hisoblanadi [Roberts, 1985; 33]. V.Bezant o'z asarida hukmron ayollarni ilmsiz, Xudosiz sifatida tasvirlaydi. Bu orqali u ayollar faqatgina uy ishlarigagina uquvliligi sababli erkak ustunligini tan olishi kerakligiga ishora qiladi. Asar so'nggida esa ayol boshqaruvidagi distopik jamiyat vayron bo'ladi va

ayol bo'ysunishi orqali utopik jamiyatga erishiladi.

Ayol hukmdorligi haqidagi yana bir feminist distopik asar bu Ch.E. Maynning "Erkaklarsiz dunyo" ("World without Men") asari bolib, u 1958-yilda yaratilgan. Ming yillardan keyingi kelajakdagi hayotni tasvirlaydigan bu asarda erkak jinsi butunlay qirilib ketgan bo'lib, dunyo aqlsiz ayol boshqaruvi asosiga quriladi. V.Bezant singari, Mayn ham ayollar va ilm-fan bir-biriga zid tushunchalar ekanligini ko'rsatadi. Erkaklar yo'qolib ketgandan beri birorta kosmik tadqiqotlar o'tkazilmagan, aksincha ayol aqli tadqiqotlar o'tkazishga qodir emas, degan fikr bildiriladi. Ilm-fan ayollar hukmronligiga tahdid uyg'otadigan har qanday ilmiy kashfiyotlarni muntazam ravishda masxara qiladigan hukumatga bo'ysunadi. "It was the female viewpoint, essentially practical and in no way visionary, using technology for what it could give with no interest in abstract research for its own sake, that prevailed" [Maine, 1958; 12]. ("Amaliy va tasavvuriy bo'lmagan, texnologiyadan oxiri qanday natija berishiga qiziqmagan holda butunlay mavhum tadqiqot uchun foydalanadigan ayol nuqtayi nazari muvaffaqiyat qozondi"). Ch.E. Mayn o'z asari orqali birgina erkak butun bir ayollar jamiyatini mag'lub qilishga qodir deb ta'kidlaydi, shu bilan birga, erkak ayoldan ilm-fan bilan ustunlik qila oladi deydi. Oradan yigirma yil vaqt o'tgach, yaratilgan P.Kuperning "Feministlar" asari ayol hukmronlik qilgan jamiyatning xuddi shunday qulashini ifodalaydi. Asarda 1992-yildagi Amerikada ayollar boshqargan jamiyatni tasvirlaydi. Ayol hukmronlar bir qator jinsga oid qonunlarni o'rnatadilar. Kuper ham V.Bezantning "Erkaklar qo'zg'oloni" ("The Revolt of Man") asaridagi vaziyatni takrorlaydi. Garchi asar nomi "Feministlar" bo'lsa-da, u erkaklar isyoni bayoniga bag'ishlanadi. Kuper ham ayollar bo'ysunishga moyil ekanligini va erkaklar ustunligi muqarrarligini ta'kidlaydi. Kuper ayollik va onalikni tenglashtirgan Sh.P. Gilman va M.B. Leynlarning an'anasini takrorlaydi. Sh.P. Gilman va M.B. Leyn tug'ruq ayollar o'zlarining teng huquqlariga ega bo'lishlarining asosiy sababidir deb e'tirof etishsa, Kuper ayollar tug'ruq orqali qobiliyatsiz ayol hukmdorlarni ko'paytiradilar deb hisoblaydi [Roberts, 1985; 40]. Ayol hukmdor sifatida tasvirlangan feminist distopiyalarda jamiyat va ilm-fan ayol-hukmdorning uquvsizligi hamda ilmsizligi sabab tanazzulga yuz tutishiga guvoh bo'lamiz.

Endi erkak yozuvchilarning ayol – o'zga sayyoralik sifatida tasvirlagan asarlariga e'tibor qaratamiz. Hukmdor ayol kabi o'zga sayyoralik ayol obrazi ham Viktoriya davriga tegishli hisoblanadi. Hukmdor obrazidagi ayol ilmsiz va uquvsiz tarzda tasvirlansa, ayol – o'zga sayyoralik sifatida qudratli kuchga ega bo'lgan zolim sifatida beriladi.

B.Littonning "Navbatdagi irq" ("The Coming Race") asari ham mana shunday ayol o'zga sayyoralik obrazi asosiga qurilgan. "Navbatdagi irq" asaridan ta'sirlangan G.J. Uells o'zining ilmiy fantastik asarlarini yaratgan. B.Littonning qahramoni-erkak tadqiqotchi yer ostida yashaydigan o'zga sayyoralik qabilaga tasodifan duch keladi. U bu Vrillar qabilasi bo'lib, ayol qudrati bilan boshqariladigan jamiyat ekanligini aniqlaydi. Asar qahramoni bu qabila vakillarining telepatik kuchga ega ekanligi bilib oladi. Ular og'riqdan xalos bo'lish, ma'lumot almashish hamda biror odamni tezda o'rganib olish kabi qobiliyatlarga ega bo'lib, ayollar erkaklarga nisbatan bahaybatroq

bo'ladi. Ular turmush o'rtoqni o'zlari tanlab, xohlagan paytda ajrashga oladilar. O'zlarining g'ayrioddiy qudrati (ular uzoq umr ko'ra olardilar) bilan ular insoniyat ustidan hukmronlik qilardilar. Ular inson zotiga nisbatan juda tez rivojlana olardilar. Vrill-ayollar o'zlarining insoniyat ustidan hukmronligi muqarrarligini ko'rsatib, asar hikoyanavisini qo'rqitadilar. B.Litton o'z asari orqali ayollar jamiyatiga zulm qilishni hamda navbatdagi irqni mag'lub qilish uchun ilm-fanni rivojlantirishni tavsiya qiladi. So'nggi bob asar nomi qanchalik tahdidli ekanligini ochib beradi. O'zga sayyoraliklarda Vrillar yer tubiga mukammallikka erishish uchun jo'natilganliklari haqida afsona mavjud bo'lib, unga ko'ra Vrillar mukammallikka erishgach, yana yer ustiga qaytib chiqadilar [Roberts, 1985; 42]. B.Litton o'zga sayyoralik ayol obrazini salbiy bo'yoqlarda tasvirlaydi. Vrillar qabilasi yer ostida joylashgan bo'lib, ularning makoni do'zaxni uyg'otadi hamda do'zaxga aloqador bo'lgan jodugarlik namunalari Litton tomonidan asarda keltiriladi. B.Litton an'anasini davom ettirgan yozuvchilar u kabi ochiq-oshkora bo'lmasalar-da, ayolni o'zga sayyoralik yoki erkakka teskari bo'lgan mavjudot sifatida tasvirlash hanuzgacha davom etadi. Masalan, o'zining "Ilk million ayol" asarida J.Vestn ayol sirli kuchga ega ekanligini ko'rsatadi. J.Vestn ayollar homilador bo'lishi uchun hamma narsa qiladigan o'ta ahmoqona jamiyatni ko'rsatadi. Yerga kometa tushishi natijasida David Glindinnigdan tashqari barcha erkaklar nurlanib qoladi, ayollar esa Davidning e'tiborini qozonish uchun hamma narsaga tayyor bo'ladilar. David esa barcha ayollar ichida xuddi qirollardek yashaydi. Asar qahramonlari ayollar bo'lsa-da, ular o'zga sayyoralik sifatida tasvirlanib, qo'rquv uyg'otuvchi ko'rinish hamda xislatlarga ega deb sifatlanadilar.

Pol – ilmiy-fantastik yozuvchi "Bokiralik olami" ("Virgin planet") asarida ham ayollarning erkaklarga bo'lgan ehtiyojini ko'rsatib beradi. 300 yildan ortiq erkaksiz yashagan ayollar jamiyati madaniy qoloqlikka yuz tutadi. Ayollar rivojlanishdan yiroq bo'lgan joyga tushib qolgach, savodsiz ekanliklari sabab, havo kemasini ham boshqara olmaydilar hamda o'sha joyda muqim qolib ketadilar. Asar hikoyachisi – erkak bu olamga tushib qolgach, ayollar uni avvaliga juda badbashara ayol deb o'ylaganlar. Keyinchalik uning erkak ekanligi ayon bo'lgach, uni jalb etish uchun hamma narsaga tayyor ekanliklarini isbotlaydilar. Hikoyanavis – erkak yolg'iz o'zi butun boshli olamni zabt etadi [Roberts, 1985; 48]. Asar hikoyanavisi ayollarning qudratidan hayratga tushadi va ularni jodugar deb o'ylaydi. U yolg'iz o'zi ayollar jamiyatini mag'lub eta oladi. Erkaklarni taraqqiyot bilan, ayollarning esa yovvoyilik bilan bog'liqligi deyarli barcha erkaklar tomonidan yozilgan feminist distopiyalarida uchraydi. Lekin Andersn ayolni yovvoyi sifatida ochiq-oshkora tasvirlaydi. Andersn bu orqali ayollarning erkaklarsiz o'jiz ekanliklarini va ularsiz mavjud bo'la olmasliklarini ko'rsatmoqchi bo'ldi. Shu bilan birga, u insonning madaniy hamda ilmiy taraqqiyotida erkakning o'rni muhim ekanligini tasdiqladi. Erkaklarsiz qolib ketgan ayollar xurofot va jaholatga yuz tutadilar. Bu ayol-o'zga sayyoraliklar o'z-o'zidan erkakka muhtoj bo'lib qoladilar hamda biror erkak kelib ularni qutqarishini kutadilar. Ushbu vaziyatda B.Littonning ayol va ilm-fan bir-biriga zid degan tushunchasi naqadar haqiqat ekanligini ko'rish mumkin [Roberts, 1985; 44]. Andersnning feminist distopik asari ayollarning madaniy qoloqligini ta'kidlash orqali erkak va ilm-fanning taraqqiyoti

muqarrarligini hamda erkak ayollar ustidan ustunlikka egaligini ta'kidlaydi. Ayollar o'zga irq vakili sifatida berilgan bunday feminist distopiyalarida ayol na bilimga va na hukumatga ega, ular boshqaruvda faqat sehr-joduga tayanadilar. Erkak yozuvchilar bu asarlari orqali ayol har doim "navbatdagi irq" bo'lib qolishidan kitobxonni ogohlantirmoqchi bo'ladi [Roberts, 1985; 51]. P.Andersn hamda B.Litton asarlarida ayol o'zga sayyoralik, maxluq sifatida tasvirlansa, U.Bezant va J.Vestn ayollarni boshqaruvchi, ya'ni hukmdor sifatida tasvirlaganlar. P.Andersn, U.Bezant, J.Vestn va B.Litton kabi yozuvchilar to'liq feminist distopiyalarni yaratmaganlar, ular ayol mavzusiga murojaat qilgan holda o'z asarlarida ilmiy-fantastika elementlaridan ham foydalanganlar.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan ingliz feminist distopiyalarining tahlili natijasida ayol va erkak yozuvchilar tomonidan yaratilgan asarlar bir-biridan gender aspektida tubdan farq qilishiga amin bo'ldik. Mualliflar ayol va erkak hukmdorlik qiladigan jamiyatlar o'rtasidagi tafovutni e'tibor markaziga oladilar. Ayol, oila, jamiyat va kelajak tasvirida ikki xil yondashuv mavjud:

1) ayol yozuvchilar asarlarida ayol asosiy qahramon sifatida "zaifa", "tahqirlangan" obrazda ifodalanadi;

2) erkak yozuvchilar tomonidan yaratilgan asarlarda esa "hukmdor" va "o'zga sayyoralik erkaksifat" ayol obrazlar o'z aksini topadi.

Huquq va erkinliklari, qadr-qimmati toptalgan ayollar zamonaviy jamiyatdagi hayot qiyinchiliklarini yengib, o'zining shaxsiy muvaffaqiyati orqali qadr-qimmat va o'zligini topa olgan qahramonlar obrazida ayol yozuvchilar tomonidan gavalantirilgan. Bu orqali ayol yozuvchilarning maqsadi – ayol sha'ni, qadr-qimmatini tiklash, ularning jamiyatda o'z o'rnini borligini isbotlash, shu bilan birga, jamiyatdagi ayollarni ruhlandırishdan iborat bo'lgan. Erkak yozuvchilar yaratgan asarlarda esa, ayollar jodugar yoki yovuz mavjudot obrazlarida ko'rsatilgan, shu bilan birga, erkaklar bunday ayollarga bo'ysunib yashaganiga e'tibor qaratgan. Bunday asarlar oxirida ayrim ayollar sabab, hokimiyatning tugatilishi yoki vayron bo'lishi, erkak qahramonning xalqni bu "yovuz" mavjudot qo'lidan qutqarishi bilan yakun topadi. Bu orqali erkak yozuvchilar yana bir bor erkakning ayoldan ustunligiga, uning kuchi va qudratiga e'tibor qaratib, ayollarning ojizligini, ularning faqatgina uy ishlariga qodir ekanliklarini isbotlashga harakat qiladi. Feminist distopik asarlar garchi janriy xususiyatlardan kelib chiqqan holda, ayol sha'ni, qadr-qimmatini toptaydigan distopik jamiyatni tasvirlashi kerak bo'lsa-da, gender aspektida "ayol" obrazi tasvirining turlicha ekanini yuqoridagi asarlar misolida tahlil qildik. Erkak yozuvchilar ayol qahramonlarni yaratishda ko'proq ilmiy-fantastikaga murojaat qilganligi tufayli fantastik unsurlar badiiy mahorat bilan qo'llangan, ya'ni voqea-hodisalar real hayotdan juda uzoq olamni tasvirlab, qahramonlar ham haqiqatdan yiroq, ilohiy kuchga ega bo'ladilar. Ayol yozuvchilar yaratgan distopiyalarda esa voqealar haqiqiy hayotga asoslangan bo'lib, ayollar boshdan kechirayotgan azob-uqubatlar ham kitobxonni ishontira oladi. Ushbu maqolada keltirilgan distopiya, "ayol" obrazi

talqini haqidagi bahs-munozaralar davom etadi. Feminist distopik asarlarining gender xususiyatlari yanada chuqurroq ilmiy-tadqiqotlar olib borishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Atwood, M. (2017). *The handmaid's tale* (2nd ed.). New York: Ecco Publisher.
2. Bedore, P. (2017). *Great utopian and dystopian works of literature*. USA: The Great Courses.
3. Besant, W. (2021). *The revolt of man*. New York: BiblioLife Publisher.
4. Bizzini, S. (1996). Narrating the exclusion: Woman on the edge of time. *Estudios Ingleses de la Universidad Complutense*, 4, 91–104.
5. Dydrov, A.A. (2014). Chelovek budushchego v distopii: Telo. *Chelyabinskiy gumanitariy*, 3(28), 63–72.
6. Erdrich, L. (2017). *Future home of the living God*. London: Harper Large Print.
7. Gilarek, A. (2012). Marginalization of “the Other”: Gender discrimination in dystopian visions by feminist science fiction authors. *Text Matters: A Journal of Literature, Theory and Culture*, (2), 221–238. <https://doi.org/10.2478/v10231-012-0066-3>.
8. Kadirova, D.D. (2023-yil 10-11-may). Feminizm va uning feminist distopiya rivojiga ta'siri. “*Perspectives of Philology and Practical Possibilities of Teaching Foreign Languages*” mavzusidagi xalqaro konferensiya. Guliston. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7972033>.
9. Kadirova, D.D. (2023). Distopiya adabiyotining nazariy va tarixiy rivojlanishi. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(9), 897–905.
10. Karpinski, E.C. (2000). Signifying passion: Angela Carter's heroes and villains as a dystopian romance. *Utopian Studies*, 11(2), 137–151.
11. Carter, A. (1969). *Heroes and villains*. UK: Heinemann Publisher.
12. Klingensmith, E. (2016). Feminist themes in dystopias. *MA thes*. USA: Indiana University of Pennsylvania.
13. Cortiel, J. (2015). Feminist utopia/dystopia: Joanna Russ, *The Female Man* (1975), Marge Piercy, *Woman on the Edge of Time* (1976). In A.Boller & E.V. Virchow (Eds.), *Dystopia, science fiction, post-apocalypse: Classics – new tendencies – model interpretations* (pp. 155–169). German: W.V.T. Wissenschaftlicher Verlag Trier.
14. Lukes, D. (2014). Neomedievalist feminist dystopia. *Postmedieval: A Journal of Medieval Cultural Studies*, 1(5), 44–56. <https://doi.org/10.1057/pmed.2014.3>.
15. Mahmudova, N.A. (2019). Problema klassifikatsii romana (k voprosu o terminologii v teorii literaturi). *O'zbekistonda xorijiy tillar*, 4(27), 180–190.
16. Maine, Ch.E. (1958). *World without men*. New York: Ace Books.
17. Martinez-Falquina, S. (2021). Feminist dystopia and reality in Louise Erdrich's *Home of the Living God* and Leni Zumas's *Red Clocks*. *The European Legacy*, 26(3-4), 270–286.
18. Minico, E.D. (2019). Spatial and psychophysical domination of women in dystopia: *Swastika Night*, *Woman on the Edge of Time* and *The Handmaid's Tale*. *Humanities*, 8, 38. <https://doi.org/10.3390/h8010038>.
19. Mohr, D.M., Palumbo, D.E., & Sulliwán III, C.W. (2005). *Worlds apart? Dualism and transgression in contemporary female dystopias*. North Carolina: McFarland & Company.
20. Piercy, M. (1976). *Woman on the edge of time*. London: Random Hauz.
21. Roberts, R.A. (1985). A new species: the female tradition in science fiction from Mary Shelley to Doris Lessing. *PhD thes*. USA: University of Pennsylvania.
22. Stillman, G.P. (2003). Dystopian critiques, utopian possibilities, and human purposes in Octavia Butler's “Parables”. *Utopian Studies*, 14(1), 15–35.
23. Stock, A. (2011). Mid twentieth-century dystopian fiction and political thought. *DSc thes*. Durham: Durham University.
24. Theron, E.F. (2019). Emotion, embodiment, and the novel: word frequency characteristics and dystopian masterworks. *PhD thes*. USA: Saybrook University.
25. Tolan, F. (2007). *Margaret Atwood: Feminism and fiction*. New York: Brill Publishers.

26. Şaltan, G.D. (2019). The representation of women in twentieth and twenty-first century dystopias. *PhD thes. philol. scien.* İstanbul: İstanbul Üniversitesi.

REFERENCES

1. Atwood, M. (2017). *The handmaid's tale* (2nd ed.). New York: Ecco Publisher.
2. Bedore, P. (2017). *Great utopian and dystopian works of literature*. USA: The Great Courses.
3. Besant, W. (2021). *The revolt of man*. New York: BiblioLife Publisher.
4. Bizzini, S. (1996). Narrating the exclusion: Woman on the edge of time. *Estudios Ingleses de la Universidad Complutense*, 4, 91–104.
5. Carter, A. (1969). *Heroes and villains*. UK: Heinemann Publisher.
6. Cortiel, J. (2015). Feminist utopia/dystopia: Joanna Russ, *The Female Man* (1975), Marge Piercy, *Woman on the Edge of Time* (1976). In A.Boller & E.V. Virchow (Eds.), *Dystopia, science fiction, post-apocalypse: Classics – new tendencies – model interpretations* (pp. 155–169). German: W.V.T. Trier Scientific Publishing House.
7. Dydrov, A.A. (2014). Man of the future in dystopia: Body. *Chelyabinsk Humanitarian*, 3(28), 63–72.
8. Erdrich, L. (2017). *Future home of the living God*. London: Harper Large Print.
9. Gilarek, A. (2012). Marginalization of “the Other”: Gender discrimination in dystopian visions by feminist science fiction authors. *Text Matters: A Journal of Literature, Theory and Culture*, (2), 221–238. <https://doi.org/10.2478/v10231-012-0066-3>.
10. Kadirova, D.D. (2023, May 10-11). Feminism and its impact on the development of feminist dystopia. International Conference on the subject *Perspectives of Philology and Practical Possibilities of Teaching Foreign Languages*. Gulistan. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7972033>.
11. Kadirova, D.D. (2023). Theoretical and historical development of dystopia literature. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(9), 897–905.
12. Karpinski, E.C. (2000). Signifying passion: Angela Carter’s heroes and villains as a dystopian romance. *Utopian Studies*, 11(2), 137–151.
13. Klingensmith, E. (2016). Feminist themes in dystopias. *MA thes.* USA: Indiana University of Pennsylvania.
14. Lukes, D. (2014). Neomedievalist feminist dystopia. *Postmedieval: A Journal of Medieval Cultural Studies*, 1(5), 44–56. <https://doi.org/10.1057/pmed.2014.3>.
15. Mahmudova, N.A. (2019). The problem of classifying a novel (on the issue of terminology in literary theory). *Foreign Languages in Uzbekistan*, 4(27), 180–190.
16. Maine, Ch.E. (1958). *World without men*. New York: Ace Books.
17. Martinez-Falquina, S. (2021). Feminist dystopia and reality in Louise Erdrich’s *Home of the Living God* and Leni Zumas’s *Red Clocks*. *The European Legacy*, 26(3-4), 270–286.
18. Minico, E.D. (2019). Spatial and psychophysical domination of women in dystopia: Swastika Night, *Woman on the Edge of Time* and *The Handmaid’s Tale*. *Humanities*, 8, 38. <https://doi.org/10.3390/h8010038>.
19. Mohr, D.M., Palumbo, D.E., & Sulliwán III, C.W. (2005). *Worlds apart? Dualism and transgression in contemporary female dystopias*. North Carolina: McFarland & Company.
20. Piercy, M. (1976). *Woman on the edge of time*. London: Random Hauz.
21. Roberts, R.A. (1985). A new species: the female tradition in science fiction from Mary Shelley to Doris Lessing. *PhD thes.* USA: University of Pennsylvania.
22. Şaltan, G.D. (2019). The representation of women in twentieth and twenty-first century dystopias. *PhD thes. philol. scien.* İstanbul: İstanbul University.
23. Stillman, G.P. (2003). Dystopian critiques, utopian possibilities, and human purposes in Octavia Butler’s “Parables”. *Utopian Studies*, 14(1), 15–35.
24. Stock, A. (2011). Mid twentieth-century dystopian fiction and political thought. *DSc thes.* Durham: Durham University.

25. Theron, E.F. (2019). Emotion, embodiment, and the novel: word frequency characteristics and dystopian masterworks. *PhD thes.* USA: Saybrook University.
26. Tolan, F. (2007). *Margaret Atwood: Feminism and fiction.* New York: Brill Publishers.